

INSON HUQUQLARI UMUMJAHON DEKLARATSIYASING HAYOTIMIZDA TUTGAN O'RNI

Ergashova Sabrina To'liqinjon qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,

Xalqaro huquq fakulteti

1-bosqich talabasi

Ergashovasabrina6@gmail.com +998973441605

www.doi.org/10.5281/zenodo.10457296

Annotatsiya: Hozirgi yanada globallashtayotgan dunyoda, uzoq zamonlardan beri insoniyatni tashvishga solib kelayotgan inson huquqlari masalasi dolzarb muammolardan bo'lib kelmoqda. Ushbu tezis "Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi" va unda nazarda tutilgan normalar haqida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: Inson huquqlari, deklaratsiya, shaxsiy huquqlar, siyosiy huquqlar, ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar va madaniy huquqlar.

Ancha yillardan buyon insonlarning haqiqiy muammosi bo'lib kelayotgan inson huquqlari masalasi tobora yanada avj olayotgan bir davrda insonga, uning huquq va erkinliklariga bo'lgan insonlarni e'tibori yanada kuchaydi deya ta'kidlash mumkin. Insonlarni ancha vaqtdan buyon qiynab kelayotgan barcha muammolar o'tsak bo'ladigan jihati shundaki, u qaysi davlat tomonidan qabul qilinishidan qat'iy nazar XX asrda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining qabul qilinishi bilan o'z yechimini topdi. Bu qaysidur ma'noda dunyo hamjamiyatida inson huquqlari sohasida yangi sahifa ochilishiga sabab bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu hujjat qabul qilinishi bilan inson huquq va manfaatlariga bo'lgan e'tibor ortdi va ortib bormoqda. Ushbu hujjatning alohida ta'kidlab rioya etilishining majburiyatini nazarda tutadi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 1948-yil 10-dekabr sanasida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan va o'sha kundan boshlab sayyoramizdagi mamlakatlar qonunchiligida misli ko'rilmagan islohotlarning amalga oshirilishiga sabab bo'ldi. Ushbu hujjatning nomi ham uning universal xarakterga ega ekanliging yaqqol isbotidir. Deklaratsiya 350 dan ortiq mamlakatlar tomonidan ratifikatsiya qilingan va ularning milliy qonunchiliging zaminiga aylanganligi ham uning muhim hujjatlardan biri ekanligini ko'rsatib beradi. Qabul qilinganiga 75 yil bo'lganligiga qaramasdan o'zing mohiyatini yo'qotganicha yo'q. Deklaratsiya qabul qilinganiga sal kam bir asr bo'layotganiga qaramasdan, bugungi kungacha u davlatlar, shaxslar va nodavlat tashkilotlarining inson huquqlari sohasidagi faoliyatining asosi hisoblanadi. Dunyoning deyarli barcha mamlakatlari tomonidan ratifikatsiya qilingan va boshqa hech qaysi hujjat inson huquqlari sohasida ushbu deklaratsiya darajasiga teng kela olmaydi. Chunki unda yer sayyorasida yashayotgan har bir insonning ,millati ,tili,di'ni, u qayerda tug'ilgani , yashayotgani,qaysi millatga mansubligidan qat'i nazar, bir xil huquq va erkinliklarga ega ekanligi belgilangan.

XXI asrda ushbu hujjat, barcha davlatlar tomonidan xalqaro-huquqiy majburiyatlarni keltirib chiqaradigan va uni ratifikatsiya qilgan davlat tomonidan uning normalariga og'ishmay rioya qilinishini nazarda tutadi. Ushbu hujjat qabul qilinganidan so'ng, inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro tizimi tom ma'noda rivojlandi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining universal xarakterga ega ekanligini uning nomidan ham ko'rish mumkin. Bundan kelib

chiqadiki, undagi normalar sayyoramizdagi barcha mamlakatlar ularda istiqomad qilib kelayotgan barcha insonlarga tatbiq etiladi.

Ushbu normativ-huquqiy hujjatning asosiy tamoyil va qoidalari jahonning aksariyat mamlakatlarining Asosiy qonunidan joy oldi, shuningdek, ularning inson huquqlari sohasidagi qonunchiliging rivojlanishida yangi sahifa ochdi va milliy huquqning tarkibiy qismiga aylandi. Xususan, hozirgi vaqtda 1948 yildan keyin qabul qilingan 100 dan ortiq davlatlarning Konstitutsiyalarida Deklaratsiya qoidalariga uyg'un va hamohang ko'plab moddalar mavjud. Bunga misol qilib, 1992-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini misol keltirish mumkin. Bundan tashqari, O'zbekistonda 2023-yilning 30-aprelida o'tqazilgan umumxalq ovozi-referendum asosida Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, yangi tahrirdagi Konstitutsiyani qabul qilinishi natijasida ham inson huquqlariga bo'lgan e'tibor yanada ortdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi ushbu sohada ko'plab xalqaro majburiyatlarni keltirib chiqaradigan hujjatlarning yaratilishiga sabab bo'ldi. Bular 1966-yil 16-dekabrda qabul qilingan "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt", "Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt" shuningdek ikkita Fakultativ bayonnomalar birlashib Inson huquqlari xartiyasini tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan, u barcha mamlakatlarda rag'batlantirilishi va himoya qilinishi kerak bo'lgan inson huquqlari bo'yicha universal standartlar uchun aniq "yo'lchi yulduz" vazifasini bajardi, desak, o'rinli bo'ladi. Bu ikki paktlarning qabul qilinishi ham davlatlar tomonidan ham iliq kutib olindi. Bular ham Deklaratsiya barobarida majburiy kuchga ega hisoblandi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, demokratik-huquqiy davlat hamda kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lini tanlagan O'zbekiston uchun Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha qonunchilik bazasini shakllantirishda eng asosiy hujjat vazifasini bajarib berdi. Ushbu Deklaratsiyasining aksariyat qoidalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, insonning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta'minlaydigan milliy qonunchilik me'yorlarida o'z ifodasini topgan. Ushbu hujjatni biz inson huquqlari va manfaatlarini himoya qilishdagi bir qurol vazifasini bajarmoqda deb hisoblasak bo'ladi. Ushbu deklaratsiya qabul qilinishi bilan insonning huquqlari yana bir pog'onaga ko'tarildi va ularga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Uning e'tobrli jihatini ham shu bilan belgilasak ham bo'ladiki u jahonning ko'pglab mamlakatlarining Asosiy qonuni bo'lmish Konstitutsiyasida o'z o'rnini topdi. Ushbu deklaratsiya normalarini hayotga kuchliroq tatbiq etish va yoyish maqsadida O'zbekiston Respublikasida 2023-yil "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb nomlangani ham bejiz emas. Bir yil davomida O'zbekiston Respublikasida inson huquqlariga avvalgidanda ko'proq e'tibor berildi. Nafaqat O'zbekiston balki dunyoning boshqa mamlakatlari ham ushbu deklaratsiya normalarini kengroq targ'ib qilish maqsadida milliy qonunchilikda ko'plab tuzatish va yangilanishlar kiritishmoqda. Butun dunyo 2023-yilda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 75-yilligini keng ko'lamda nishonlashdi.

Demak, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 75-yilligi munosabati bilan barchamiz kuchlarimizni bir joyga jamlashimiz va inson huquq va erkinliklarini oliy qadriyat darajasiga ko'tarishga o'zimizning munosib hissamizni qo'shmo'g'imiz darkor. Buning uchun bizdan katta kuch va birdamlik talab qilinadi. Agar

kuchlarimizni bir joyga to'play olsak , ana o'shanda biz mamlakatimizni inson wadri yuksak darajada ulug'lanadigan bir mamlakat darajasiga ko'ta olamiz. Shuni ko'rsak bo'ladiki, butun dunyoda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy sababchilari insonlardir. Quvonarlisi shundaki, aynan ularning qadr-qimmati sababli ko'plab xalqaro konvensiya, deklaratsiya, paktlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Mamlakatimiz esa dunyoning eng ilg'or mamlakatlari qatorida o'zining munosib o'rniga ega bo'ladi desak xato bo'lmaydi.

References:

1. <http://insonhuquqlari.uz/>
2. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/inson-huquqlari-umumjahon-deklarasiyasida-inson-huquqlariga-oid-ayrim-masalalar>
3. <https://lex.uz/docs/-6464217>
4. <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>
5. <https://yuz.uz/uz/news/adolatli-dunyoning-huquqiy-poydevori>



INNOVATIVE
ACADEMY